O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Sanoat, radiatsiya va yadro xavfsizligi qo‘mitasi huzuridagi Radiatsiya va yadro xavfsizligi ilmiy-texnik markazining byudjet xarajatlarini maqsadli indikatorlarining 2026 yil 2-chorak ijrosiga

MA’LUMOTNOMA

Radiatsiya va yadro xavfsizligi ilmiy-texnik markazi tomonidan 2026 yil II-chorakda jami xarajatlar bo‘yicha tasdiqlangan reja 6 128,4 mln so‘mni, kassa ijrosi esa 3 147,0 mln so‘mni tashkil etgan. Quyida xarajat guruhlari kesimida reja va kassa ijrosi hamda farqlar yuzasidan ma’lumot beriladi.

Guruh	Xarajat turi	Reja, mln so‘m	Kassa, mln so‘m	Farq, mln so‘m	Ijro, %
I-guruh	Ish haqi va unga tenglashtirilgan to‘lovlar	1 438,8	1 101,2	337,6	76,5
II-guruh	Ish haqiga nisbatan ajratmalar	361,7	247,9	113,8	68,5
IV-guruh	Boshqa xarajatlar	4 327,9	1 797,9	2 530,0	41,5
Jami	**Jami xarajatlar**	6 128,4	3 147,0	2 981,4	**51,4**

I-guruh bo‘yicha reja va kassa ijrosi o‘rtasidagi 337,6 mln so‘m tafovut shtat birliklarining hisobot davrida to‘liq jamlanmaganligi, xodimlarni ishga qabul qilish jarayonining bosqichma-bosqich amalga oshirilganligi, shuningdek ayrim ustama, qo‘shimcha va moddiy rag‘batlantirish to‘lovlari amalda ishlangan davr hamda erishilgan natijalardan kelib chiqib to‘langanligi bilan izohlanadi.

II-guruh bo‘yicha 113,8 mln so‘m tafovut ish haqi bo‘yicha kassa ijrosi reja darajasida bajarilmaganligi sababli yagona ijtimoiy to‘lov va unga bog‘liq ajratmalar summasi ham mutanosib ravishda past shakllanganligi bilan bog‘liq.

IV-guruh bo‘yicha 2 530,0 mln so‘m tafovutning asosiy qismi asosiy vositalarni (laboratoriya jixozlari, dasturi) xarid qilish, xizmat safarlari, o‘qitish, tovar-moddiy zaxiralar hamda boshqa xizmatlar bo‘yicha xarajatlarning hisobot davrida qisman amalga oshirilmagan. Mazkur holat, asosan, xarid va shartnomaviy jarayonlarning bosqichma-bosqich amalga oshirilishi, tovar va xizmatlar yetkazib berilish muddatlarining keyingi davrlarga to‘g‘ri kelishi hamda ayrim xarajatlar bo‘yicha ehtiyojning hisobot choragida rejalashtirilgan hajmda yuzaga kelmaganligi bilan bog‘liq.

Ushbu farqlar hisobidan Ilmiy texnik markaz shtatini kengaytirish ва moddiy texnik baza mustahkamlash maqsadida oktyabr oyigacha ketma-ketlikda ishchi xodimlar qabul qilinishi va ular uchun moddiy texnik bazasi sotib olinishi ko’zda tutilmoqda.

Ichki audit xizmati xodimi **Z.Atakulov**

Buxgalteriya va iqtisodiyot bo‘limi bosh xisobchisi **D.Sapayeva**